

Date: 25th February-2026

USMON NOSIR “NIL VA RIM” DOSTONINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI

Nuraliyeva Nasibahon Axmadqulovna

Andijon davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası mustaqil
izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Usmon Nosir ijodida muhim o‘rin tutgan “Nil va Rim” dostonining falsafiy-estetik mohiyati tahlil qilinadi. Asarda makon va timsollar orqali inson, zulm, erk, va ma‘naviy ozodlik masalalarining badiiy ifodasi ochib beriladi. Dostondagi obrazlar tizimi, ramziy qatlam va muallifning ijtimoiy-falsafiy qarashlari zamonaviy estetik-falsafiy nuqtai nazaridan yoritiladi.

Kalit so‘zlari: Usmon Nosir, “Nil va Rim”, falsafiy-estetika, ramz, tarixiy timsoli, erk g‘oyasi, poetic tafakkur, pafos, ideal.

Аннотация: В данной статье анализируется философско-эстетическая сущность эпической поэмы «Нил и Рим», занимающей важное место в творчестве одного из великих деятелей узбекской литературы, Усмана Насира. Произведение раскрывает художественное выражение проблем человека, угнетения, воли и духовной свободы через пространство и символы. Система образов в эпосе, символический слой и социально-философские взгляды автора освещаются с современной эстетико-философской точки зрения.

Ключевые слова: Усман Насир, «Нил и Рим», философско-эстетический, символ, исторический символ, идея воли, поэтическая мысль, пфос, идеал.

Kirish: XX asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos badiiy tafakkur, teran falsafiy mushohada va yuksak estetik qarashlari bilan alohida o‘rin tutgan Usmon Nosir ijodi bugungi kunda ham adabiyotshunoslikva estetika ilmida muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shoirning “Nil va Rim” dostoni nafaqat tarixiy voqelikni badiiy talqin etishi, balki inson, erkinlik, adolat va sivilizatsiya masalalarini umumfalsafiy miqyosda yoritishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qadryatlarimiz tiklanar ekan, xalq merosiyo boyligini yarata bilgan bironta shaxs, bironta siymo hotira va e‘tibor doirasidan chetda qolmayotganligi quvontiradigan hol. Ana shunday siymolardan biri-shoir Usmon Nosirning simosidir. U oz muddat 31 yil yashab va bizgacha etib kelgan adabiy merosini 24 yoshgacha yaratdi. Shoirni Moskva gazetalarida “Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi”, deb yozishadi. Respublika rahbari Akmal Ikromov esa shoirni “O‘zbek she‘riyatining porloq yulduzi” deb e‘lon qiladi, uni “O‘zbeklarning Lermontovi” deb ataydi. Shoirning asarlarida falsafiy o‘ylar, mushohadalar kuchayishi bilan shoirona mahorati ham o‘sayotgani ko‘rina boshlaydi. Usmon Nosir adabiyot maydonida faqat 24 yoshigacha ijod qiladi va o‘zini buyuk shoir, iste‘dodli publistit, mohir tarjimon sifatida elga tanitadi. Usmon Nosir “Nil va Rim” dostonida tarix voqealariyu o‘tmishga murojaat qilaturib, o‘zi yashayotgan zamonaning qaltisligi, nohaqliklarga to‘la



Date: 25th February-2026

ekanligi, adolatsizlik hukum surayotgan zamona ekanligiga satrlar orasida yashiringan fikrlar bilan shama qiladi:

Lampam yonur... Yaralangan qanotdek og'ir—

O'y bosadi. Yuragimda go'yo sel yog'ir.

Qiynalaman. Tirishaman. Hushim parishon,

O'tmish, hozir va kelajak ko'rinur har on,--

deb yazadi shoir va bu satrlarda qandaydir chorasizlikdan paydo bo'lgan yurakning qullikka qarshi alamli va shu bilan birga isyonga to'la faryodi va hayqirig'i otilib chaqayotgandek bo'ladi. "Hushi parishon"likning sababi—shoir "o'tmish, hozir va kelajak"ni bog'lab turuvchi qullik ipini ko'ra olganida emasmikin?!

Qullar... Menman u qullarning o'lmas avlodi,

Mana menman, u qullarning hech so'nmas yodi.

Mana menman, falaklarga lov-lov o't qo'yib,

Otalarimning boshidan poydevor uyib,

Ozodligim obidasin qurgan insonman!

O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!

Qanchalar zarda va kinoya bor bu so'zlarda... Qanchalar nafrat va alam bor bu teran falsafiy fikrlarga asos bo'lgan satrlarda... Shoir o'zini ham qul ataydi, "u qullarning o'lmas avlodi, hech so'nmas yodi" ekanligiga urg'u beradi. Buyuk simolarga murojat qilar ekan, zamon sir-asrorlariga javob izlaydi:

O'lim yaxshi inson agar shunday xor bo'lsa!

Bir parcha non nima o'zi? Shunga zor bo'lsa!

Nahot chaqmoq yondirmaydi bunday ochunni?!

Qul fardiday umr, tog'day kulfat uchunmi?!

Javob bergin menga zukko qadimiy Hommer,

Ko'z yoshiyu qonga rostdan tashnami bu er?..

Bu kabi hayollar shoir ko'nglini g'am-sitamlarga to'diradi, tushkunlik ko'chasiga etaklaydi. Va u nochorlik qurboni sifatida, noilojlikdan o'zini bu fikrlardan olib qochmoq istaydi:

Qo'y, yaxshi chol! Ko'nglim to'ldi, gaplashamiz so'ng,

Bu nimasi? Eshitdingmi og'ir, hazin mung?—

deb, o'sha basir bo'lib o'tgan qalandar shoir "qadimiy Hommer"- ni o'z dardlariga oshno qiladi. U: bu so'zlar bilan ulig'vorlik, fojiaviylik ortidan vatanparvarlikni targ'ib qilgan bo'lsa ajabmas.

O'zbek adabiyoti tarixida Usmon Nosir ijodi falsafiy teranlik, ramziy tafakkur va yuksak estetik idiyalar bilan ajralib turadi uning she'r va dostonlarida inson, hayot, tarix va taqdir muommolari keng qamrovda talqin etiladi. Ayniqsa, "Nil" va "Rim" dostonlari shoir ijodida tarixiy-falsafiy umumlasmalarga asoslangan, badiiy tafakurning yuksak namunasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada mazkur asarlarning falsafiy -estetik mohiyati ilmiy nuqtaiy nazardan tahlil qilinadi.

"Nil" dostonida hayot va ozodlik falsafasi: "Nil" dostoni Usmon Nosir ijodida hayot manbai, harakat va abadiylik ramzi sifatida talqin etiladi. Nil daryosi shoir uchun faqat



Date: 25th February-2026

geografik tushuncha emas, balki insoniyat taqdiri, sivilizatsiyasi va inson ruhiyati bilan uzviy bog‘liq badiiy obrazdir.

Falsafiy jihatdan Nil- hayotning abadiy harakati, inson irodasi va ozodlikka intilish timsolidir. Dostonda Nil qirg‘oqlarida shakillangan qadim sivilizatsiya orqali inson tafakkurini yuksalishi, shu bilan birga, uning zulm va asoratga duch kelishi ochib beriladi. Shoir bu orqali tarixiy jarayonlarning takrorlanuvchanligi haqida falsafiy hulosa chiqaradi. Estetik jihatdan asarda epic kenglik, tabiat manzaralarinig ramziy ifodasi va lirik-publisistik ruh ustuvor. Nil obrazi badiiy til orqali inson qalbiga ta’sir etuvchi kuchli estetik vositaga aylanadi.

“Rim” dostonida sivilizatsiya va tanazzul g‘oyasi Rim dostoni Usmon Nosir ijodida tarixiy falsafiy umumlashmaning yana bir yorqin namunasidir. Qadim rim sivilizatsiyasi shoir tomonidan qudrat va zo‘ravonlik, shon-shuhrat va ma’naviy tanazzul o‘rtasidagi ziddiyatli tizim sifatida talqin qilinadi. Falsafiy mazmunda Rim- moddiy kuchga asoslangan jamiyatning inqirozga mahkum ekanligi haqidagi g‘oyani ifodalaydi. Shoir Rim tarixi orqali insoniyatga ogohlik beradi: adolat, manaviyat insoniyat va insonparvarlikdan uzoqlashgan har qanday sivilizatsiya tanazzulga yuz tutadi. Estetik jihatdan dostonida tragik pafos, keskin obrazlar va ramziy tasvirlar ustuvor. Rimning ulkan me’moriy qiyofasi ortida ma’naviy bo’shliq, inson qadrining poymol etilishi ko‘rsatiladi. Bu esa asarning estetik ta’sir kuchini yanada oshiradi.

Dostonning estetik xususiyatlari va ahamiyatining yana bir jihati shundaki, Ramziylik va timsollar tizimida, “Nil va Rim” obrazlari oddiy geografik tushuncha emas, balki badiiy-falsafiy timsollardir. Shoir ular orqali hayot va zulm, bunyodkorlik va vayronkorlik o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Asarda tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unligi shundaki, tarixiy voqealar tasviri orqali shoir o‘z davrining ruhiy muommolarini ifodalagan, bu orqali asarning badiiy qiymati yanada oshgan.

Jadidchilik paradigmasi Usmon Nosir ijodidagi “Nil va Rim” dostonining jo‘shqin poetic uslubda yozilganini ko‘rish mumkin. Usmon Nosir she’riyatiga o‘ziga xos baland pafos, ritmik kuch va obrazlilik dostonida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoirning til boyligi va metaforik tafakkuri asarga estetik joziba bag‘ishlaydi. Shoir falsafiy mushohada ila “Nil va Rim” dostonida shunday yozadi:

Hamon yig‘lar yalong‘och Rim, hamon dil ezar,

Hamon tilla qadahda qon ichar Sezar!

Deya, Vatanida bosqinchilik bilan hukmronlik qilayotgan tuzum va siyosatni, “qizil imperiya” boshida turgan hukmron doxiylarni Sezar va Fira‘vnlarni timsolida ko‘rib majoziy ta’rif bermadimikin?! “Ko‘zlari qonga to‘lgan”, “Tishlarini irjaytirib bo‘kirgan yo‘lbars”-siyosatning, “parcha-parcha bo‘lgan gladiyator”- halqning va yo balki qatag‘onlar boshlanib, elning eng sara farzandlari boshiga tushgan savdolarining timsoli emasmikin?! Shoir o‘zi yashayotgan, proletary hukm surayotgan davlatni “jinni teatr” ga taqqoslamadimikin?!

Issiq izlar. Hamon u isyondan iz bordek,

Bulutlarning orasida yurar Spartak.



Date: 25th February-2026

Javob bersin Aflotunmi, Vergiliymiy, yo-

Boshqa biri, qani, kim u? Kim mard? Kim guvoh?

Shoir javob beruvchi “mard” ni ahtaradi. Va yana bu mardni “Spartakni hali ham borayotgan lashkarlari” orasidan topadi. Bu – shoirning o‘zi:

Mana menman, u isyonning o‘lmas avlodi,

Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi.

She‘r so‘ngidagi bu qaytariq qalblar ko‘zini ochishga, ongu fikratini uyg‘otishga yo‘naltirilgan bir da‘vatdek, chaqiriqdek jaranglaydi, o‘sha davrda bitta jamiyat “otalar boshidan poydevor uyib, kelajakning obidasin qurgan inson” lardan iborat bo‘lib qolganligidan yuragida cheksiz azob tuyadi, qiynaladi va tilini tiya olmaydi...

Nil va Rim obrazlarining qiyosiy tahlili Usmon Nosir ijodida Nil va Rim bir-biriga qarama-qarshi, biroq falsafiy jihatdan o‘zaro bog‘liq obrazlaridir. Nil – hayot, harakat va umid ramzi bo‘lsa, Rim- zo‘ravonlikka asoslangan qudratning halokatini ifoda etadi. Bu qiyos orqali shoir tarixiy tajribadan umuminsoniy hulosa chiqaradi. Falsafiy nuqtai nazardan bu illi obraz inson va jamiyat taraqqiyotining ikki yo‘lini anglatadi: biri tabiiy hayot va ma‘naviy kamolotga yo‘nalgan, ikkinchisi esa zo‘rluk va manfaatga asoslangan yo‘ldir. Estetik jihatdan esa shoir ramziy obrazlar, epik kenglik va baland pafos orqali inson tafakkuriga ta’sir ko‘rsatadi.

HULOSA:Shoir “Nil va Rim” she‘rini svotlar yurtida fikrlovchi insonlar borki, qatag‘on qilinishlari avjga chiqib, keskin “Firqaviy tozalashlar” jarayoni o‘tayotgan davrda, 1935 yilda yozdi. Va unda o‘z his-tuyg‘ularini Qadim voqealariga, ko‘hna tarix saboqlariga murojat qila turib, yurt dardi sifatida ocha bildi. Bu davr shoir uchun hayotni umrini ikki olamga bo‘lguvchi va o‘rtada paydo bo‘lgan bir sarhad vazifasini o‘tadi. Shoirning ham hayotida, ham ijodida keskin burilish bo‘lib o‘tdi. U dunyoga endi boshqa ko‘z, boshqa nazar bilan qaradi. She‘rlaridagi “stahonovchilik” zavqini, “ura-uar-ura” chilikni falsafiy mushohadalarni egallay boshladi. She‘rlarini asosini “dard” egallay boshladi. Hulosa qilib aytganda Usmon Nosirning “Nil” va “Rim” dostonlari o‘zbek adabiyotida falsafiy-estetik tafakkurning yuksak namunasi hisoblanadi. Ushbu asarlarda shoir tarixiy obrazlar orqali inson, sivilizatsiya va ma‘naviyat taqdiri haqida chuqur falsafiy hulosalar chiqaradi Nil-hayot va ozodlik ramzi sifatida, Rim esa zo‘ravonlikka asoslangan qudratning tanazzulu sifatida talqin etiladi. Bu esa Usmon Nosir ijodining umuminsoniy ahamiyatini yanada oshiradi. “Nil va Rim” dostoni shoir ijodining yuksak falsafiy –estetik namunalaridan biridir. Asarda tarixiy timsollar orqali inson erki, adolat va hayotning abadiyligi madh etiladi. Usmon Nosir ushbu asari orqali o‘zbek adabiyotida tarixiy -falsafiy tafakkurning yangi bosqichini boshlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.U. Nosir. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot,
- 2.M Qo‘shjonov, Usmon Nosir Hayoti va ijodi.- Toshkent: Fan, 1983y.
- 3.O‘. Rashidov. Usmon Nosir she‘rlari.-Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1965y.
- 4.N. Rashidova. Jadid adabiyoti namoyandalari Usmon Nosir “She‘rlar, doston va tarjimalar”. Zabarjad media, 2022 y.

Date: 25th February-2026

5. N. Rashidova. Turkiston ulug'lari. Usmon Nosir haqida. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-2001y.
- 6.M. Tojiboyeva. Jadid adabiyoti ijodida mumtoz adabiyot an'ahalari va mahurat masalalari. "Mumtoz so'z", Toshkent nashriyoti 2017y.
- 7.Usmon Nosir hayoti va ijodiga bir nazar. O'zbekiston milliy axborat agentligi <https://uza.uz> .

